

SHAROF BOSHBEKOV ASARLARIDA YUMOR

Qahramonova Shahnoza Fazliddin qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharof Boshbekov asarlarida yumorning tutgan o'rni, shuningdek, asarlarida voqealarning rivoji hamda didaktikaning yumor asosida ochib berilishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: yumor, asar, tasvir, didaktika, majoz, voqealar rivoji, qurol, ahamiyat, real voqea, qiyoslash, tasvirlamoq.

HUMOR IN THE WORKS OF SHAROF BOSHBEKOV

Kahramonova Shahnoza Fazliddin kizi

Abstract: This article talks about the role of humor in the works of Sharaf Boshbekov, as well as the development of events and didactics based on humor in his works.

Key words: humor, work, image, didactic, metaphor, development of events, weapon, significance, real event, comparison, describ.

ЮМОР В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ШАРОФА БОШБЕКОВА

Кахрамонова Шахнозы Фазлиддина кизи

Абстрактный: В данной статье говорится о роли юмора в произведениях Шарафа Бошбекова, а также о развитии событий и дидактики на основе юмора в его произведениях.

Ключевые слова: юмор, произведение, образ, дидактика, метафора, развитие событий, оружие, значение, реальное событие, сравнение, описание.

KIRISH

Sharof Boshbekov haqida so'z yuritar ekanmiz, Sharof Boshbekov adabiyotga XX asrning 70-yillarida kirib keldi. U badiiy adabiyotning eng murakkab turi bo'lgan dramaturgiyada ijod qiladi. Shu paytgacha adibning "Taqdir eshigi" "Tikansiz tipratkanlar" "Eski shahar guvroshlari" "Eshik qoqgan kim buldi" "Temir xotin" "Tushov uzgan tulporlar" "Charo'gbonlar" "Tentak farishtalar" kabi sahna asarlari chop etilgan. Yozuvchi o'z ssenariyasi bo'yicha suratga olingan "Masharaboz" filmiga rejissorlik qilgan.(1)

Ijodkor asarlarida yumor haqida so'z yurutar ekanmiz avvalo Sharof Boshbekov o'z tarjimai holidan ham bu haqida ma'lumot berib o'tganligi e'tiborga molikdir:

"Har bir yozuvchining qandaydir òzigagina xos jihati bòladi. Kimdir sujet topishga usta, kimdir noyob xarakterlar yaratishga mohir boshqalar asar voqealarini zargarona terishda tengi yòq. Mening eng yaxshi kòrgan qurolim - yumor . Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarning taqdiri qay darajada fojiali bòlmasin yumor, hazil-mutoyiba , askiya unsurlari, sòz òyinlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilaman. Bu birinchidan, asarni òqishli qiladi, tomoshaviylikini oshiradi, ikkinchidan, boshqa nuqsonlarni "yopib" ketadi. Masalan "Temir xotin" asarimda aytiladigan "gap" jiddiy ,lekin vaziyat ,qahramonlarning sòzi kulgili yoki aksincha bòlishi mumkin.

Kòpincha u yoki bu asarning qanday yozilgani haqida sòrashadi. Kimdir aytgan ekan avval toza qoғoz olasiz, sòng chapdan ònga qarab yozib ketaverasiz deb.(2)

Sharof Boshbekov asarlarida yumor haqida aytib òtadigan bòlsak avvalo yumor atamasiga izoh berib òtamiz.

Yumor (lot. humor-xilt) kulgi bilan xayrixohlikni òzida mujassam etgan komiklik turi. Badiiy adabiyotga munosib yumoristik asarda yozuvchi ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi , xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik - nuqsonlardan kulib , uni tanqid qiladi. Bunda yozuvchi tanqid qilinayotgan obyektning yuqotilishga tarafdor emas unga achinadi , undagi mavjud kamchilikning tuzulishini istaydi.

Yengil tanqid hazil ruhi bilan yumor satiradan farq qiladi satirik asarda ijtimoiy hayot hodisalari zaxarhanda kulgi orqali fosh etilsa, yumorda xaraktirdagi nuqsonlar hazil, mutoyiba, kinoya bilan tanqid qilinadi. Satirada yumor unsuri bòlganidek, yumorda ham satira unsuri bor. Har qanday jiddiy asar roman, qissa , she'r va shaklda xalq ijodi namunalarida ham yumor bòladi. Ğarb adabiyotidagi asosiy namoyondalaridan Servantes, L.Stern, Ch.Dikkens, N.V.Gogol va boshqalar tasviriy sanatta yumor voqea, narsa, jonivor, ayniqsa, kishilarning hatti harakati kulgili tasvirlangan.

Sharof Boshbekovning asarlari haqida kòplab fikrlar bildirilgan , hususan, Orif Tolib zamonaviy òzbek dramaturgiyasi deganda kòz oldimda Shaof Boshbekov gavdalanadi. Garchi yozuvchiga katta shuhrat olib kelgan

"Temir xotin " jiddiy komediyasi 1989-yili sahnalashtirilgan "Charxpalak" teliseriali esa 1997- 2000- yillari suratga olingan bulsa ham tògri , boshqa shoirlar-yozuvchilar asarlari asosida ham xalqqa manzur bòlgan spektakl va kinofilmlar yaratildi.

Biroq ular ijodning bosh yònalishi dramaturgiyasi emas. Adib bilan 2010-yili suhbat qurgandim. Òshanda Boshbekov domla kitob chiqarishga uncha qiziqmasligi, yozganlari sahnalashtirilishi yoki ekranlashtirilishi muhumroq ekanini aytgandi" deya fikr mulohazalar va suhbat jarayonida bòlib òtgan voqealarni aytib òtadi.

Bòrttirish masalasiga kelsak, yuqoridagi Orif Tolib tomonidan aytib òtilgan fikrlarga kòra Sharof Boshbekov juda kòp sahna va kino asarlar hayotdan aynan kòchirma ekanligini, shuning uchun ularni xushlamasligini chinakam adabiyot ğayrioddiy bòlishi odamni hayratlantirishi kerakligini aytib òtadi.

"Charxpalak" dagi Maryam obrazida favqulodda iste'dod avliyolarga xos sifatlar, katta botiniy kuch mujassam. Ammo bu xislatlar unda aynan nima sababli borligiga hech qanday ishora yuq.

Juda kòp filimlarda kòrganmiz, biror bir qahramonda ğayrioddiy xususiyat paydo bòlib qolishi uchun u odatda kutulmagan sirli xodisaga duch keladi.

Maryam esa bunday holatlarga duch kelmaydi. Bu esa yozuvchining kuchli istedodidan dalolatdir.

Kòp òrinlarda yozuvchining prafessionalligi yaqqol sezilib turadi.

Voqealar zanjiri tugun va yechimlarning tabiiyligi mexr yoki ziddiyat aks etgan sahnalarda, qahramonlar tutadigan yòl va aytadigan gap-sòzlarning òrinliliği nozik qochirimlar va sòz òyinlaridan ustalik bilan foydalanilgani shundan dalolat.

Xulosa òrnida shuni aytib òtishim mumkinki Sharof Boshbekov yumorni boshqa ijodkorlardan farqli ularoq noziklik va keng sòz ustaligi bilan ishlatishi orqali ajralib turadi.

Voqealar zanjiri tugun va yechimlarning tabiiyligi yumor asosida juda chiroyli talqin qilinadi. Juda jiddiy muommolarni ham noziklik bilan yumorga boğlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 9-sinf adabiyot darsligi. Toshkent "Òzbekiston" - NMIU 2019. 157-bet
2. 9-sinf adabiyot darsligi. Tishkent "Òzbekiston"- NMIU 2019. 259-bet.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi.